

Yuqori molekulyar birikmalar kimyosi sohasida yirik olim

Yuqori molekulyar birikmalar kimyosi sohasida yirik olim, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Asqarov Mirxodji 89 yoshida vafot etdi.



M. Asqarov 1931-yil 30-aprelda Toshkent shahrida tug'ildi. 1953-yili Moskva texnologik institutini tugatib, ushbu institut aspiranturasida tahsil oldi. 1957-yilda nomzodlik, 1967-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 2000-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zosi etib saylandi.

Iste'dodli olim qariyb 65 yillik ilmiy-pedagogik faoliyati davomida Toshkent politexnika instituti (hozirgi Toshkent davlat texnika universiteti) katta o'qituvchisi, Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi (hozirgi Polimerlar kimyosi va fizikasi) instituti laboratoriya mudiri, direktori, Kimyo instituti laboratoriya mudiri, direktori, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti kafedrasi mudiri, professori kabi lavozimlarda samarali mehnat qildi, xalqimiz va Vatanimizga sidqidildan xizmat qilib, mamlakatimizda ilm-fan va ta'lim sohalarini rivojlantirish, kimyo sohasida yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashga munosib hissa qo'shdi.

Zahmatkash olimning ilmiy ishlanma va tadqiqotlari respublikamiz kimyo sanoati sohasida keng qo'llanib kelinmoqda. Uning mazkur sohadagi ilmiy ishlanmalari iqtisodiyotimiz tarmoqlari rivojida muhim ahamiyatga ega.

Olimning yuqori molekulyar birikmalar kimyosi sohasining nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan 600 dan ziyod ilmiy maqolalari, 15 yaqin kitob va monografiyalari, 150 dan ortiq patent va mualliflik guvohnomalari yurtimiz va xorijiy mamlakatlar olimlari va mutaxassislariga yaxshi ma'lum.

Jonkuyar ustoz sifatida ko'plab yoshlarga saboq bergen ilm-fan fidoyisining bevosita rahbarligida o'nlab fan nomzodlari va fan doktorlari tayyorlangan.

Yirik olim, mehribon ustoz, kamtarin inson Mirxodji Asqarovning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.